

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРА, ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Хамроев Мехрож Сирожхонович saminfo@kiut.uz

Руководитель курсов «Дневное и вечернее образование» Ташкентского
международного университета Кимё филиал Самарканд, Узбекистан, г.

Самарканд, ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

Эшмуродов Султон Сувонкулович saminfo@kiut.uz

Руководитель заочного отделения
Ташкентского международного университета Кимё филиал Самарканд,
Узбекистан, г. Самарканд, ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

Тошев Шерзод Уктамжонович proofst555@gmail.com

Резидент магистратуры 1-го курса Ташкентского международного
университета Кимё филиал Самарканд, Узбекистан, г. Самарканд,
ул.Х.Абдуллаева 63, Тел: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz

АННОТАЦИЯ: В статье систематически анализируется институциональная структура, организационно-правовой статус и особенности развития государственных и негосударственных высших учебных заведений, действующих в Самаркандской области. В рамках исследования сравнительно изучены направления образования и уровень специализации высших учебных заведений, языки обучения, контингент студентов и преподавательский состав, кадровые и научно-познавательные показатели, а также их участие в национальных и международных рейтинговых и аккредитационных процессах.

Результаты анализа показали, что система высшего образования в Самаркандской области развивается быстрыми темпами, направления образования и институциональные формы диверсифицировались. Одновременно выявлены актуальные проблемы, такие как повышение научного потенциала, расширение участия в международных рейтинговых и аккредитационных системах, обеспечение качества образования и прозрачность информации. Полученные результаты служат научной основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию региональной системы высшего образования, подготовке конкурентоспособных кадров и укреплению интеграции в международное образовательное пространство.

Ключевые слова: высшее образование, Самаркандская область, университеты, научный потенциал, рейтинг, аккредитация, качество образования.

INSTITUTIONAL STRUCTURE, EDUCATIONAL POTENTIAL AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF HIGHER EDUCATIONAL ORGANIZATIONS OF THE SAMARKAND REGION

Khamroev Mekhrozh Sirozhkhonovich saminfo@kiut.uz

Head of the Daytime and Evening Education courses at the Tashkent International Kimyo University ,Uzbekistan, Samarkand, H.Abdullaev St. 63, Tel: +998 55 702 40 40

Eshmurodov Sulton Suvonkulovich saminfo@kiut.uz

Head of external education at the Tashkent International Kimyo University Samarkand branch, Uzbekistan, Samarkand, H.Abdullaev St. 63, Tel: +998 55 702 40 40

E-mail: saminfo@kiut.uz **Toshev Sherzod Uktamjonovich**
proofst555@gmail.com

1st year resident of the master's program at Tashkent International University
Kimyo branch Samarkand, Uzbekistan, Samarkand, H. Abdullaev str. 63, Tel:
+998 55 702 40 40 Email: saminfo@kiut.uz

ABSTRACT: This article systematically analyzes the institutional structure, organizational and legal status, and developmental characteristics of public and private higher education institutions operating in the Samarkand region. The study provides a comparative analysis of the institutions' areas of education and levels of specialization, languages of instruction, student population and faculty, personnel and research and educational indicators, as well as their participation in national and international ranking and accreditation processes.

The analysis revealed that the higher education system in the Samarkand region is developing rapidly, with educational areas and institutional forms diversifying. It also identifies pressing issues such as enhancing scientific potential, expanding participation in international ranking and accreditation systems, ensuring educational quality, and ensuring information transparency. The findings serve as a scientific basis for developing practical recommendations for improving the regional higher education system, training competitive personnel, and strengthening integration into the international educational space.

Keywords: higher education, Samarkand region, universities, scientific potential, ranking, accreditation, education quality.

SAMARQAND VILOYATIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING INSTITUTIONAL TUZILMASI, TA'LIM SALOHİYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Hamroev Mehroj Sirojjonovich saminfo@kiut.uz

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali 1-kurs magistratura rezidenti, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40
Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Eshmurodov Sulton Suvonqulovich saminfo@kiut.uz

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali "Sirtqi ta'lim" yo'nalishlari rahbari, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40 Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Toshev Sherzod Uktamjonovich proofst555@gmail.com

Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali Kunduzgi va kechki ta'lim kurslari rahbari, O'zbekiston, Samarqand, H. Abdullaev ko'chasi, 63, Tel: +998 55 702 40 40 Elektron pochta: saminfo@kiut.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarining institutsional tuzilishi, tashkiliy-huquqiy holati va rivojlanish xususiyatlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda muassasalarning ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislik darajalari, o'qitish tillari, talabalar soni va professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar va ilmiy-tadqiqot ko'rsatkichlari, shuningdek, ularning milliy va xalqaro reyting va akkreditatsiya jarayonlaridagi ishtiroki qiyosiy tahlil qilinadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyatidagi oliy ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda, ta'lim yo'nalishlari va institutsional shakllari diversifikatsiya qilinmoqda. Shuningdek, unda ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro reyting va akkreditatsiya tizimlarida ishtirokni kengaytirish, ta'lim sifatini ta'minlash va axborot shaffofligini ta'minlash kabi dolzarb masalalar aniqlangan. Topilmalar mintaqaviy oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va xalqaro ta'lim makoniga integratsiyani kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, Samarqand viloyati, universitetlar, ilmiy salohiyat, reyting, akkreditatsiya, ta'lim sifati.

Kirish: Bugungi globallashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimi mamlakatning intellektual, iqtisodiy va innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi. O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi universitet va filiallarning tashkil etilishi, ta'lim qamrovining kengayishi hamda xalqaro

reytinglarga chiqish jarayonlari hududlar kesimida ham muhim o'zgarishlarga olib keldi.

Samarqand viloyati tarixan ilm-fan va madaniyat markazi bo'lib kelgan. Bugungi kunda viloyatda klassik universitetlardan tortib tor ixtisoslashgan, shuningdek nodavlat va xorijiy hamkorlik asosidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu bois Samarqand viloyati misolida oliy ta'lim tizimining institutsional rivojlanishini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyatida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarining institutsional va ta'lim salohiyatini taqqoslama tahlil qilish orqali hududiy oliy ta'lim tizimining rivojlanish darajasi va istiqbollari aniqlash.

Vazifalar: oliy ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy turlarini tahlil qilish; ta'lim yo'nalishlari va tillar xilma-xilligini baholash; talabalar va xodimlar soni asosida salohiyatni aniqlash; ilmiy salohiyat va reyting ko'rsatkichlarini tahlil qilish; rivojlanish muammolari va istiqbollari belgilash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotda ochiq statistik va institutsional ma'lumotlar asosida taqqoslama-tahliliy, deskriptiv va strukturaviy tahlil metodlari qo'llanildi. Quyidagi ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida olindi: tashkil topgan yili; ta'lim muassasasi turi (davlat, nodavlat, filial); ixtisosliklar spektri; ta'lim tillari; talabalar va xodimlar soni; ilmiy salohiyat (%); reyting va akkreditatsiya holati.

Tadqiqot natijalari: Mazkur tahliliy hisobot Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari haqidagi jadval ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Hisobotning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining institutsional xususiyatlari, ta'lim yo'nalishlari, talabalar va xodimlar salohiyati, ilmiy ko'rsatkichlari hamda reyting va akkreditatsiya holatini tahlil qilishdan iborat.

OLIIY TA'LI M TASHKILO TI	TU RI	YIL	IXTISOS LIKLAR	TIL LA R	TAL ABA SON I	XODI M SONI	I.S. (%)	REYTING/ AKKRED.	SAY T
SamD U	Dav lat	1927	Keng qamrovli..	O'zb, Rus, Ing	12,100	825	Mavjud emas	QS 5*, THE, Webometric s	samd.u.uz
SamD TU	Dav lat	1930	Tibbiyot...	O'zb, Rus, Ing	13,23 (3,282 xor.)	Mavjud emas	Mavjud emas	Milliy reyting yuqori	samm.u.uz
TATU SF	Dav lat fil.	2005	IT, Telekom, Dast.inj...	O'zb, Rus	~1776+	115	~38%	Mavjud emas	samtu.it.uz
TKXU SF	Nod avlat fil.	2022/23	Turli (Ped, Fil, Biz...)	O'zb, Rus, Ing	4000+	100+	Mavjud emas	KAZSEE, IQAA, EQAR	sam.k.iut.uz
SamA TI	Dav lat	2020	Q/x, Agroinno v...	O'zb, Rus	1575	94	Mavjud emas	Xalqaro hamkorlik	sama.guni.uz

OLIIY TA'LI M TASHKILO TI	TU RI	YIL	IXTISOS LIKLAR	TIL LA R	TAL ABA SON I	XODI M SONI	I.S. (%)	REYTING/ AKKRED.	SAY T
TDIU SF	Dav lat fil.	2019	Iqtisod (Raq, Agro)...	O'zb, Rus, Ing	>2600	Mavjud emas	Mavjud emas	Xalqaro konf./hamkor.	sbtsu.e.uz
SamSI	Dav lat	1931 (2004)	Iqtisodiyot, Servis, Turizm	O'zb, Rus	2326 ('15)	241 ('15)	~31% ('15)	Milliy reyting+, Erasmus+	sies.uz
SamD ChTI	Dav lat	1994	Chet tillar (Filologiya, Tarjima)	Ko'p tilli	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	RUR	samd.chti.uz
SamD AQSU	Dav lat	1966	Arxitektura, Qurilish, Muhandislik	O'zb, Rus	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	Qo'shma dasturlar	samg.asi.uz
«Ipak yo'li» Univ.	Dav lat	2018	Turizm, Madaniy meros	Ing, O'zb, Rus	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	Xalqaro maqom	univ-silkroad.uz

OLIIY TA'LI M TASH KILO TI	TU RI	YIL	IXTISOS LIK LAR	TIL LA R	TAL ABA SON I	XODI M SONI	I.S. (%)	REYTING/ AKKRED.	SAY T
SIUT	Nod avla t	~20 22 (?)	Muhandis lik, Texnologi ya	Ingli z (?)	Mavj ud emas	Xoriji y mutax assisla r	Mav jud ema s	Qo'shma diplomlar	siut.u z

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida oliy ta'lim tashkilotlari uch asosiy guruhga bo'linadi:

Davlat oliy ta'lim muassasalari;

Davlat oliy ta'lim muassasalarining filiallari;

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari va filiallari.

Davlat oliy ta'lim muassasalari (SamDU, SamDTU, SamATI, SamISI, SamDChTI, SamDAQSU) hududda oliy ta'lim tizimining asosiy tayanchini tashkil etadi. Nodavlat va filial shaklidagi muassasalar esa ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirib, yangi yo'nalishlar va xalqaro standartlarni joriy etishda muhim rol o'ynamoqda.

Eng qadimgi oliy ta'lim muassasasi — Samarqand davlat universiteti (1927), undan keyin tibbiyot (1930), iqtisodiyot va servis (1931) hamda arxitektura-qurilish (1966) yo'nalishlaridagi muassasalar tashkil etilgan.

So'nggi yillarda (2018–2023) tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalari va filiallar hududiy oliy ta'lim tizimining **dinamik rivojlanayotganini** ko'rsatadi. Bu esa ta'lim qamrovini kengaytirish va yangi mutaxassisliklar ochishga xizmat qilmoqda.

Jadval tahlili Samarqand viloyatida oliy ta'lim yo'nalishlari keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Jumladan:

klassik va fundamental fanlar; tibbiyot; axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya; iqtisodiyot, biznes va servis; turizm va madaniy meros; qishloq xo'jaligi va agroinnovatsiya; arxitektura va muhandislik.

Biroq ayrim yo'nalishlarda (iqtisodiyot, biznes, pedagogika) takrorlanish holatlari mavjud bo'lib, bu hududiy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvni yanada aniqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim **o'zbek va rus tillarida** olib boriladi. Ingliz tilidagi dasturlar, asosan, tibbiyot, iqtisodiyot, turizm va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan.

Bu holat xalqaro talabalarni jalb qilish va akademik mobillikni rivojlantirish uchun ijobiy imkoniyat yaratadi, biroq ingliz tilidagi dasturlar ulushini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Talabalar soni bo'yicha yetakchi o'rinlarni SamDTU (13 mingdan ortiq) va SamDU (12 mingdan ortiq) egallaydi. Bu muassasalar hududiy va respublika miqyosida asosiy kadrlar tayyorlovchi markazlar hisoblanadi.

Xodimlar soni va ilmiy salohiyat bo'yicha ma'lumotlar barcha oliy ta'lim muassasalarida to'liq emas. Faqat ayrim muassasalarda (TATU SF, SamISI) ilmiy salohiyat foiz ko'rinishida keltirilgan. Bu holat oliy ta'lim tizimida **axborot shaffofligini oshirish zarurligini** ko'rsatadi.

Jadvaldan ko'rinishicha, xalqaro reytinglarda faol ishtirok etayotgan oliy ta'lim muassasalari soni cheklangan. Xususan, SamDU QS Stars, THE va Webometrics reytinglarida qayd etilgan.

Nodavlat va ayrim filiallar esa xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari (KAZSEE, IQAA, EQAR) orqali sifatni tasdiqlashga intilmoqda. Shu bilan birga, ko'plab muassasalarda reyting va akkreditatsiya bo'yicha ma'lumotlar mavjud emasligi ularning xalqaro raqobatbardoshligini cheklashi mumkin.

Xulosalar: Samarqand viloyatida oliy ta'lim muassasalari turlari va yo'nalishlari jihatidan boy va xilma-xildir. Davlat universitetlari talabalar soni va ilmiy salohiyat bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Nodavlat va yangi muassasalar xalqaro dasturlar orqali raqobatbardoshlikni oshirmoqda. Reyting va akkreditatsiya tizimlarida ishtirokni kengaytirish hududiy oliy ta'lim tizimi rivojining muhim sharti hisoblanadi. ilmiy salohiyat va reyting ko'rsatkichlari bo'yicha **ochiq statistik platforma** yaratish; ingliz tilidagi ta'lim dasturlarini kengaytirish; xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini jadallashtirish; hududiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy konsorsiumlar tashkil etish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Набиев В. Ш. Образовательный потенциал: дефиниции понятия, структура и значение в компетентностном подходе //Крымский научный вестник. – 2015. – №. 5-2. – С. 3-17.
2. Астафьева Е. Н. Познавательный и образовательный потенциал истории педагогики //Academia. Педагогический журнал Подмосковья. – 2016. – №. 2. – С. 59-62.
3. Шуб М. Л. Современные коммеморативные практики: образовательный и воспитательный потенциал //Челябинский гуманитарий. – 2016. – №. 3 (36). – С. 80-87.
4. Морозова Е. Е., Федорова О. А., Золотухина О. А. Образовательный потенциал проекта «Мир комнатных растений» //Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2011. – Т. 104. – №. 12. – С. 168-172.
5. Губанов Н. Н., Губанов Н. И. Вызов Аполлона и образовательный потенциал общества //Гуманитарный вестник. – 2016. – №. 4 (42). – С. 4.
6. Дегтярева В. В. Образовательный потенциал социальных сетей //Философия образования. – 2010. – №. 3. – С. 30-35.